

SOFOKL ASARLARIDA FOJEAVIYLIK SHOH EDIP MISOLI HAQIDA

Suyunova Shaxzoda Ilhom qizi

*Jizzax davlat pedagogika universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi talabasi suyunovashaxzoda@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqola antik yunon yozuvchisi Sofoklning "Shoh Edip" tragediyasini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda asarning qadimgi yunon madaniyati, mifologiyasi va diniy e'tiqodlari bilan o'zaro bog'liqligi ko'rib chiqiladi. Aristotelning "Poetika" asariga asoslanib, "Shoh Edip"ning eng yaxshi tragediya namunasi ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada asarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi jarayonida delakunizatsiya hodisasi, ya'ni yunon madaniyatiga xos o'ziga xosliklarning yo'qolishi yoki soddalashtirilishi masalasi o'rganiladi. Adabiyotlar tahlili orqali asarning falsafiy, adabiy va psixologik ahamiyati, shuningdek, o'zbek teatrida tutgan o'rni yoritib beriladi. Delakunizatsiya hodisasining sabablari sifatida yunon diniy tushunchalarining tushunarsizligi, qadimgi yunon jamiyatidagi farqlar, matnning zamonaviy o'quvchilarga moslashtirilishi va yunon mifologiyasining murakkabligi kabi omillar ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *delakunizatsiya, deterministik falsafa, egzistensial ziddiyat, interpretatsiya, ijobiy va salbiy jihatlar, egzistensial fojia.*

KIRISH

Sofoklning "Shoh Edip" tragediyasi qadimgi yunon madaniyati, mifologiyasi va diniy e'tiqodlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan dramatik asardir. Zero, Aristotel o'zining "Poetika" asarida aytganidek, "Eng yaxshi tragediyalar ajoyib inson haqida emas, balki kamchiliklarga ega bo'lgan, lekin yomon emas, taqdir taqazosi bilan fojia qurboniga aylangan shaxs haqida bo'lishi kerak. Shuning uchun ham "Shoh Edip" eng yaxshi tragediya namunasi" ⁵⁸. Shuningdek, ushbu asarni tarjima qilish jarayonida delakunizatsiya hodisasi, ya'ni yunon madaniyatiga xos o'ziga xosliklarning yo'qolishi hamda umumlashtirilishi kuzatilishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Bilamizki, Sofokl va uning "Shoh Edip" tragediyasi asrlar davomida falsafiy, adabiy hamda psixologik jihatdan eng chuqur va zalvorli asarlardan biri bo'lib qolmoqda. Muallif vafotidan yigirma asr o'tgan bo'lsa-da, u o'z mashhurligini, qimmatini yo'qotmagan. Sofoklning zamondoshlari va donishmand Arastu ushbu spektaklni "mualliflik mahoratining cho'qqisi" deb hisoblaganlar hamda Freyd ⁵⁹ undan "Edip kompleksi" nazariyasini rivojlantirgan. Bu asarni Asqad Muxtor 1958-yilda Moskva shahrida "Xudojestvennaya literetura" nashriyotida chop etilgan ruscha tarjimasidan o'zbekchaga o'g'irgan. Asar o'zbek tilidagi ilk va yagona

⁵⁸ Qirol Edip. Sofokl. Ingliz she'riy asarlaridagi yetti pyesa. Yangi nashr. qayta ko'rib chiqilgan. London, Nyu-York va Toronto, H. Frowde - Oxford University Press, 83-128-betlar.

⁵⁹ Qirol Edip. Sofokl. Oksford, Oksford universiteti Press va London, Hamfri Milford. 83-128-betlar. KARTER, Xantli (1964). Maks Reynxardt teatri. Nyu-York nashriyoti, Benjamin Blom.

tarjimadir. Shunday qilib, “Shoh Edip” tragediyasi 1979-yilda G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida chop etilgan ⁶⁰. Qolaversa, bu asar asrlar davomida jahon teatr sahnalaridan tushmay keladigan va eng nodir asarlardan biridir, xususan, o’zbek teatrida ham o’z tamal toshini qo’ya olgan asardir. Bu xususda yozuvchi Nazar Eshonqul “Shop Edip” va Shukur Burxonov haqida shunday fikr bildiradi: “Tomoshabinlar, albatta, Sofoklning “Shoh Edip” asaridan va uning televariantidan xabardor. Bu mashhur tragediyadagi Edip rolini ulug’ sanatkori Shukur Burhonov o’ynagandi. Ulug’vor asarlar ulug’ iste’dodlarni dunyoga keltiradi, ulug’ sahna asarlari ulug’ aktyorlarni yaratadi. Sofoklning ulug’ligi o’zbek sahnasida yana ham ulug’vor qiyofaga kirdi”⁶¹. Delakunizatsiyaga tarjima jarayonida milliy, diniy va madaniy unsurlarni soddalashtirish, neytrallashtirish yoki boshqa moslashtirish jarayoni hisoblanadi. Bu hodisa turli sabablarga ko’ra sodir bo’lish ehtimoli ko’zda tutiladi, ammo “Shoh Edip” asarida quyidagi sabablarga ko’ra delakunizatsiya hodisasi kuzatilgan. Bular:

- Yunon diniy tushunchalarining boshqa madaniyatlarda tushunarsiz bo’lishi;
- Qadimgi yunon jamiyatiga xos ijtimoiy va siyosiy tizimlarning farqli ekanligi;
- Matnning zamonaviy o’quvchilarga moslashtirilishi;
- Yunon mifologiyasiga oid tushunchalarning ba’zan tushunarsiz bo’lishidir. Asar nafaqat bizda, balki boshqa millatlarda ham turli xil farqlar hamda o’zgarishlar bilan,

ya’ni ma’lum millat an’analari va madaniyatlariga moslashtirilgan holda tarjima qilingan.

Xususan, 1900 va 1970-yillarda oralig’ida asarning yettita turli xil pyesalari Misrda nashr qilingan hamda sahna ko’rinishi sifatida ijro etilgan. XIX XX asrlarda Misr hamda Gretsiyaning tarixi o’rtasida sezilarli farqlar kuzatilgan, shuning uchun ham ular mustamlaka va mustamladan keyingi turli xil modellardan foylanishgan ⁶².

Tarjima jarayonida esa yunon tilidan tarjima qilinganda mazmun, madaniy kontekst va uslub jihatdan muayyan o’zgarishlarga uchrashi turgan gap. Bu jarayondagi asosiy o’zgarishlar esa, til va uslub o’zgarishi, madaniy va kontekstual moslashtirishlar, taqdir hamda erkin iroda tushunchasining talqini hamda poetik va dramatik strukturalarning moslashtirilishi kuzatiladi. Semiotik va tarjima nazariyotchisi Umberto Eko⁶³ ham tarjimada yo’qolgan elementlar hamda intersektual o’zgarishlar haqida gapirgan. Unga ko’ra, “Shoh Edip” tarjimalari o’z vaqtining madaniy paradigmasiga bog’liq holda o’zgargan.

“Tarjima har doim asl matndan chetlashadi. “Shoh Edip” tarjimalarida ramziy ma’nolar va mifologik ishoralar ba’zan yo’qoladi yoki yangi kontekstda boshqa ma’no kasb etadi”⁶⁴ Masalan, rus tarjima asarlariga qaraydigan bo’lsak, taqdir va majburiylik

⁶⁰ KLARK, Devid R. va Jeyms B. MakGuayr (1989). WB. Yeats. Sofoklning “Qiroli Edip” asarining yozuvi. Filadelfiya, Amerika falsafiy jamiyati. KLARK, M.L. (1973). Richard Porson. Biografik esse. Folkroft Kutubxona nashrlari.

⁶¹ KOLERIDJ, Edvard P. (1893). Qiroli Edip. Sofoklning fojialari. [Bonn klassik kutubxonasi]. London va Nyu-York, Jorj Bell va O’g’illari. 1-65-betlar.

⁶² https://uz.wikipedia.org/wiki/Shoh_Edip

⁶³ DRYDEN, Jon (1812). Odius. Jon Dryden asarlari. Muharrir Ser Valter Skott. VI. Edinburg, Archibald Constable va London, Xerst, Robinson, 115-225-betlar. 18 jild.

⁶⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Edip>

nuqtai nazaridan, ya'ni deterministik falsafa asosida talqin qilinadi, holbuki, fransuzlarda Edipning erkin tanlovi va fojia o'rtasidagi egzistensial ziddiyat, ya'ni Edipning ichki azoblanishi nisbatan soddaroq ifodalar bilan beriladi.

Tarjima asarning poetik tasvirining ham zaiflashishiga olib kelgan. Bundan tashqari, tarjima nazarayotchisi Jorj Stayner ham bu borada o'z qarashlarini ifoda etgan. Stayner tarjimaning ma'daniy kontekstiga bog'liq ekanligini ta'kidlab, "Shoh Edip" tarjimalarida ba'zan yunon madaniyatiga xos tushunchalar yo'qolib ketishini alohida ta'kidlab ko'rsatgan. "Har bir tarjima interpretatsiyadir. Stayner "Shoh Edip"ning turli tillarga tarjimalarida yunon mifologiyasi va taqdir tushunchasi ba'zan soddalashtiriladi yoki boshqa madaniyatga moslashtiriladi", degan fikrni ilgari suradi⁶⁵. Masalan, qadimgi yunon tilida "moira"(taqdir) tushunchasi ba'zi tarjimalarda "Xudo irodasi" sifatida berilgan, bu esa yunon falsafasidagi erkin iroda va zaruriyat o'rtasidagi muvozanatni buzishi mumkin. Shu tufayli ham, tarjimaning madaniy kontekstiga ham tarjima jarayonida e'tibor qaratilishi zarur va muhim hisoblanadi⁶⁶.

Olingan natijalar va ularning tahlili. "Shoh Edip" asarida delakunizatsiya kuzatiladigan holatga to'xtaladigan bo'lsak, bular taqdir, bashoratchilik, Xudolar, siyosiy tuzum bilan ham bog'liq. Sofokling tragediyasida, ayniqsa, diniy mavzular katta ahamiyat kasb etadi. Bu Edipning va uning ota-onasining bashoratga ishonishi va taqdirni o'zgartirishga urinishga harakat qilishi misolida yaqqol namoyon bo'ladi.

Tarjima jarayonida esa ular ba'zan yo'qotiladi yoki umumlashtiriladi. Xususan, asarda Delfiy ibodatxonasidagi Apollon bashoratchisi (Pifiy orakuli) muhim rol o'ynaydi. Tarjimada esa u ba'zan "bashoratchi" yoki "muqaddas voiz" sifatida beriladi, bu esa asl diniy kontekstni pasaytirishi mumkin. "Zeus, Apollon, Dionis" kabi xudolar nomi ba'zan umumiy "Xudo" yoki "taqdir" sifatida tarjima qilinishi mumkin.

Natijada Asarning yunon mifologiyasiga xosligi zaiflashadi. Chunki ularda har bir Xudoning o'z vazifalar yoki qandaydir insonga xos bo'lmagan xislatlari borligi ko'rsatilgan. Zeus ularning Oliy hamda Olimp Xudosi bo'lsa, Apollon esa bashorat xudosi sifatida tushuniladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, moira, ya'ni qismat so'zi hamda ananke (taqdir) tushunchalari ham asarda muhim rol o'ynagan.

"Shoh Edip"da qahramon o'z qismatidan qochishga harakat qilsa ham, barcha harakatlari uni aynan o'sha taqdir sari yetaklaydi. Tarjimada esa moira ba'zan shunchaki "taqdir" yoki "Xudoning irodasi" sifatida beriladi. Yunon dunyoqarashidagi qochib bo'lmas taqdir tushunchasi boshqa madaniyatlarda boshqacha talqin qilinishi mumkin. Natijada esa asl matndagi falsafiy chuqurlik va tragizm darajasi kamayishi mumkin. Shuningdek, tarjima jarayonida faqatgina madaniyatgagina ta'sir qilib qolmay, u siyosiy tizim va jamiyatga ham o'z ta'sirini o'tkazishini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, qadimgi Yunoniston shohlarni ilohiy deb bilishmagan, chunki ularda Xudolar ko'p bo'lgan va ular ilohiy kuchlarga ega deb qaralgan, shohlar esa faqat hukmdor sifatida xalqqa xizmat qilishi kerak deb hisoblangan. Tarjimada esa ba'zi

⁶⁵ <https://mutolaa.com/uz/book/shoh-edip>

⁶⁶ So'zboshi." Ovidning maktublari. Jon Drydenning asarlari. Jild. I. Berkli va Los-Anjeles, Kaliforniya universiteti nashriyoti, 109-119-betlar. 20 jild. (1970). Jon Dryden. Tanlangan tanqid. Muharrirlar.

shohlar oddiygina “qirol” yoki “imperator” shaklida berilgan yoki juda soddalashtirilgan⁶⁷.

Masalan, Polis (shahar, davlat) haqidagi tushunchalar soddalashtirilganini ko‘rishimiz mumkin. “Shoh Edip” asarida xalq va shoh o‘rtasidagi munosabat demokratiya ruhiga yaqinroq. Tarjimada esa bu monarxiya shaklida talqin qilinishi mumkin. Buning natijasida Yunon jamiyatiga xos boshqaruv tizimi o‘quvchi tomonidan to‘g‘ri qabul qilinmasligi mumkin.

Yana bir tarjima jaryonidagi muhim o‘zgarishdan biri bu Edip ismining ramziy ma‘nosi. Ya‘ni asar o‘zbek tiliga tarjima qilinganda Edip ismining ramziy ma‘nosiga alohida to‘xtalib o‘tilmagan. Edip – yunon tilida “shishgan oyoq” degan ma‘noni anglatadi. Bu isming ma‘nosi uning bolalikda oyoqlari bog‘lanib tashlanganidan kelib chiqadi. Holbuki, tarjima jarayonida bunga alohida to‘xtalib o‘tilmagan. Bu ma‘no Edip shaklida qolavergan. Bu esa o‘quvchining ramziy detaldan bexabar qolishiga yetaklashi mumkin.

Natijada esa Edip obrazining mohiyati va fojialigi tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, tarjima jarayonida delokunizatsiya hodisasi sodir bo‘lishi muqarrar jarayondir. Shu o‘rinda tarjima nazariyotchisi Umberto Eko aytib o‘tganidek, “Shoh Edipning tarjimalari orqali biz qadimgi yunon dunyosining diniy va falsafiy asoslaridan uzoqlashib boramiz. Har bir tarjimon o‘z davri mafkurasiga mos ravishda uni talqin qiladi”, degan fikrni aytib o‘tgan hamda yo‘qolgan elementlar va interpretatsion o‘zgarishlar haqida ham gapirgan ⁶⁸.

Bundan tashqari eng muhim tarjima jarayonida sodir bo‘lgan o‘zgarish bu shubhasiz, she‘riy ifodaning nasrga aylantirilganligidir. Asar tragediya shaklida yozilgan bo‘lib, u choruslar, ya‘ni bu bir guruh aktyorlar bo‘lib, ular birgalikda qo‘shiq, she‘r yoki dialog orqali spektakldagi voqealarga munosabat bildiradi. (yoki xorlar) hamda she‘riy ko‘rinishda, ammo tarjimada asar nasrga aylantirilgan va natijada garchi o‘quvchining tushunishiga osonroq shaklga aylantirilgan bo‘lsada, she‘riy ritm, estetik go‘zallik va dramatik kuch yo‘qolganini ko‘rishimiz mumkin.

Masalan, “Fear? What has a man to do with fear who has firm belief in fate?” deya she‘riy shaklda keltirilgan. “Taqqdirga ishongan odam qo‘rquv nima ekanini bilmaydi”, shaklida nasriy bayon qilingan. Yana bir muhim o‘zgarishlardan biri bu til darajasidagi farqlar, ya‘ni yunon tilidagi murakkab grammatik qurilmalar ritorik so‘roq gaplar, metaforalar o‘zbek tiliga oddiy gaplar orqali tarjima qilingan, bu esa asarning ta‘sirchanlik darajasining pasayishiga olib kelgan.

Masalan, “Who is he, whose fate the god pronounces with such dread?” “Kim u? Xudo bunchalik dahshatli taqdir aytgan kishi kim?” deya oddiy gap shaklida tarjima qilingan, bu esa ritorik kuchni pasaytirgan, shunga qaramay mazmun saqlanib qolgan. Muhokama.

⁶⁷ Raymerga javobning boshlari. Jon Drydenning asarlari. XVII jild. Berkli, Los-Anjeles va London, Kaliforniya universiteti nashriyoti, 185-193-betlar

⁶⁸ Edip. Jon Drydenning asarlari. XIII jild. Berkli, Los-Anjeles va London, Kaliforniya universiteti nashriyoti, 113-215-betlar. 20 jild. 260

Yana bir narsa bu o'quvchilarni o'ylantirishi tabiiy hol, ya'ni delokunizatsiya hodisasi sodir bo'lishi bu ijobiy jarayonmi yoki salbiy?! Aytish joizki, bu hodisaning salbiy tomonlari ham, ijobiy tomonlari ham birdek kuzatilishi mumkin.

Dastlab, ijobiy tomonlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, u bir qancha xulosalar kelishi mumkin bular:

1. Tarjimaning tushunarli va ommabop bo'lishini ta'minlaydi. Ba'zida asar juda murakkab hamda tushunishi qiyin bo'lgan an'anaviy va tarixiy hodisalarni o'z ichiga olganda, tarjima jarayonida tushunarliroq qilish hamda qadimiy va notanish madaniy kontekstni soddalashtirish orqali asarni global auditoriya uchun yaqinroq qilishi mumkin⁶⁹.

2. Turli madaniyatga moslashish imkoniyati.

Ba'zi madaniyatlarda asarning asl nusxasidagi diniy va ijtimoiy tushunchalar biroz qarama-qarshiliklar va tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin, bu esa asarning o'qishlilik darajasini kamaytirishi mumkin. Shuning uchun madaniyatga moslashtirib tarjima qilish, bir jamiyatga begona bo'lgan elementlarni olib tashlab, universal tushunchalarga asoslangan talqin yaratish imkonini beradi.

Masalan, Edipning o'z taqdirini qabul qilishi ba'zan yunon falsafasidagi taqdir tushunchasi emas, balki ekzistensial fojia-insonning erkinligi, tanlovi, mas'uliyat va mavjudlikning noaniqligi bilan bog'liq muammo, sifatida talqin qilingan. 3. Tarjimada ortiqcha tafsilotlarni kamaytirish. Ba'zan asarda ko'p madaniy va diniy detallardan foydalaniladi, bu esa asarning asosiy mazmuniga putur yetkazishi mumkin, shu tufayli ham ortqicha ma'lumotlarni kamaytirish va asosiy mazmunni saqlab qolish orqali asarning yanada rivojiga olib kelishi mumkin⁷⁰.

Salbiy tomonlariga muhokama qiladigan bo'lsak, ular quyidagilardan iborat:

1. Sofokl yaratgan yunon mifologiyasi hamda madaniy qatlamlar yo'qolishi mumkin. Tarjima jarayonida yunon madaniyatiga xos bo'lgan madaniy jihatlar va ba'zi mifologik afsonalar masalan, ular Xudolarga tegishli bo'lishi mumkin, yo'qolishi mumkin.

2. Asarning tragik ruhiyati va falsafiy mazmuni zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

3. O'quvchi asliyat bilan tarjima o'rtasidagi tafovutni sezmasligi mumkin. Shunday qilib, delakunizatsiya natijasi shu va shunga o'xshash ijobiy va salbiy oqibatlariga yetaklaydi⁷¹.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sofoklning "Shoh Edip" asarining tarjima jarayonida delakunizatsiya hodisasidan foydalanilgan. Bu hodisa matnning tushunarli bo'lishiga yordam beribgina qolmay, asarning globallashuviga ham katta yordam beradi, ammo shu bilan bir qatorda ortiqcha delakunizatsiya asar mohiyatini o'zgartirib yuborishi hamda falsafiy mazmun zaiflashishiga ham olib kelishi mumkin. Ideal tarjima esa katta mahorat talab qiladi, bu madaniy qatlamlarni saqlagan holda, zamonaviy o'quvchi uchun tushunarli bo'lishi lozim. Shu sababli ham tarjima

⁶⁹ Aristotel "Poetika" Malcolm Heath tarjimasi: chapter 13, Penguin Classics, 1996. 50-55 b

⁷⁰ <http://hdl.handle.net/1842/23624>

⁷¹ Aristotel "Poetika" Malcolm Heath tarjimasi: chapter 13, Penguin Classics, 1996. 50-55 b.

jarayonida delokunizatsiya hodisasidan ehtiyotkorona hamda asosiy g'oyani saqlagan holda, asliyat va tarjima o'rtasidagi muvozanatni topgan holda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblangan.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qirol Edip. Sofokl. Ingliz she'riy asarlaridagi yetti pyesa. Yangi nashr. qayta ko'rib chiqilgan. London, Nyu-York va Toronto, H. Frowde - Oxford University Press, 83-128-betlar.
2. Qirol Edip. Sofokl. Oksford, Oksford universiteti Press va London, Hamfri Milford. 83-128-betlar. KARTER, Xantli (1964). Maks Reynxardt teatri. Nyu-York nashriyoti, Benjamin Blom.
3. KLARK, Devid R. va Jeyms B. MakGuayr (1989). WB. Yeats. Sofoklning "Qirol Edip" asarining yozuvi. Filadelfiya, Amerika falsafiy jamiyati. KLARK, M.L. (1973). Richard Porson. Biografik esse. Folkroft Kutubxona nashrlari.
4. KOLERIDJ, Edvard P. (1893). Qirol Edip. Sofoklning fojialari. [Bonn klassik kutubxonasi]. London va Nyu-York, Jorj Bell va O'g'illari. 1-65-betlar.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Shoh_Edip
6. DRYDEN, Jon (1812). Odipus. Jon Dryden asarlari. Muharrir Ser Valter Skott. VI. Edinburg, Archibald Constable va London, Xerst, Robinson, 115-225-betlar. 18 jild.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Edip>
8. <https://mutolaa.com/uz/book/shoh-edip>
9. So'zboshi." Ovidning maktublari. Jon Drydenning asarlari. Jild. I. Berkli va Los-Anjeles, Kaliforniya universiteti nashriyoti, 109-119-betlar. 20 jild. (1970). Jon Dryden. Tanlangan tanqid. Muharrirlar.
10. Raymerga javobning boshlari. Jon Drydenning asarlari. XVII jild. Berkli, Los-Anjeles va London, Kaliforniya universiteti nashriyoti, 185-193-betlar
11. Edip. Jon Drydenning asarlari. XIII jild. Berkli, Los-Anjeles va London, Kaliforniya universiteti nashriyoti, 113-215-betlar. 20 jild. 260
12. Aristotel "Poetika" Malcolm Heath tarjimasi:chapter 13, Penguin Classics, 1996. 50-55 b.
13. <http://hdl.handle.net/1842/23624>
14. Aristotel "Poetika" Malcolm Heath tarjimasi:chapter 13, Penguin Classics, 1996. 50-55 b.